


SHARQ MASH'ALI

A decorative geometric pattern in the bottom-left corner, featuring interlocking star and floral shapes in white, blue, and orange on a dark green background.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

2
2024



Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti
1992-yildan chiqa boshlagan
Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot
boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)

Bosh muharrir:

G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:

D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh
muharrir o'rinbosari)

X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)

A. MANNONOV (prof., f.f.d.)

Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)

R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)

SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)

Q. OMONOV (prof., f.f.d.)

U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.)

D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)

X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)

B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)

A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)

M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)

X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)

D.XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha
PhD)

SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)

N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)

A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)

R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)

I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)

R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)

E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)

A. SHONAZAROVA (AQSHning
Kolumbiya univ. prof.)

G. GLIZON (AQSHning New Mexico
univ. prof.)

ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba
univ. prof.)

LI DJI IN (Koreya Respublikasining
Xankuk chet tillar univ. prof.)

V. MESAMED (Isroilning Quddus univ.
prof.)

A. GURER (Turkiyaning Anqara univ.
prof.)

A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar
akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta
ilmiy xodimi)

G. AVDA (Misr Arab Respublikasining
Xelvon univ. prof.)

A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining
"Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi
direktori)

S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)

H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk
univ. prof.)

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 2, 2024-yil

Adabiyotshunoslik

Eshmuhammedova M. Shoir Mushkinning chop etilmay qolgan she'rlari.....	3
Саудова Н. Трансформация реалистического метода повествования в саудовской новеллистике	11
Sulaymonova H. O'zbek va arab adabiyotida epistolyar janrlar tarixining qiyosiy tadqiqi	21
Nazarova A. Afg'oniston qarshilik she'riyati va Partav Nodiriy ijodi	29
Murtazaxodjayeveva M. Pavlayi va Anna Karenina: tutash taqdirlar.....	38
Абдуганиева Н. Проявление ислама в литературе и культуре индонезии.....	46

Tilshunoslik

Sodiqov Q. «Devonu lug'ati-t-turk» matnidagi harakat belgilari va turkiy so'zlarning o'qilishi masalasi	52
Исламджанова Х, Замалеева Э. К проблеме статуса наречия как особой части речи в современном пашто	61
Begmatova B., Shakirova Z. Ism so'z turkumini turlanishiga ta'sir qiluvchi omil turlar (Sayyid Sharif Jurjoniyning "Nahvi Mir" asari misolida)	69
Азимджанова Д., Азизходжаева К. Структурно-семантический - анализ дипломатической лексики современного персидского языка	78
Umarova M. Tarjimashunoslik maktablarida "Milliy kolorit" tushunchasining ilmiy tavsifi ...	85
G'iyosov B. Xitoy ta'lim muassasalari tomonidan tuzilgan ta'lim shiorlarining leksik-semantik tahlili.....	93
Berdiyev U. Madaniy kontseptlar: til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik	106
Ахмедова С. Теоретические основы изучения концепта "любви"	114



Nashrga tayyorlovchilar: J. ISMOILOV, A. ZIYODOV L. HAMDAMZODA, H. SULAYMONOVA Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnal original-maket asosida bosildi. Sharq mash'ali, 2023 yil 1-son. e-mail: nashriyot@tsuos.uz web-site: www.tsuos.uz Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.	<i>Tarix</i>	Худайбердиев А. Идеология движения «Ансару Аллах» 122 Abdullayev U. Amir Temur va Yildirim Boyazid o'rtasidagi muhoraba avvalida Yaqin Sharqdagi xalqaro vaziyat 127 Axmedov S. Temuriylar davri Renessansini o'rganishga mo'ljallangan davr manbalari tahlili. 134 Zokirov B. XIX asr O'rta Osiyo xonliklari toponimik qatlamida turkiy etnonim bilan bog'liq joy nomlari..... 142
	<i>Tashqi siyosat</i>	Турдиева Д. Роль и значение религиозного фактора в социально-политической жизни Малайзии в XX-XXI веке 150 Ahmadxojayev M. Siyosiy lider faoliyatida Saylov oldi imijmeyking usullari 163 Abduraimova Sh. Raqamli asr davrida konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash: islom.uz sayti mediakontentlarida bag'rikenglik masalalari 171 Тилаволдиев А. Платформа «с5+1» как важный инструмент внешнеполитической стратегии США в центральной азии 178
	<i>Intervyu</i>	Mannonov A. Профессор Шарый Жўзжоний . 189





17. Холидов Б.З. Арабские заимствования в современном литературном языке пушту: дисс. канд. филол. наук. Ташкент., 1952.
18. Черепанов М.В. Очерк словообразовательной типологии русского глагола. С., 2004.
19. Яцевич Л.С., Остапенко В.В. Учебник языка пушту. М., 2001.



ISM SO'Z TURKUMINING TURLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR (SAYYID SHARIF JURJONIYNING "NAHVI MIR" ASARI MISOLIDA)

Begmatova Buzahro

dotsent, filologiya fanlari nomzodi, TDSHU

Shakirova Zulfiya

dotsent, filologiya fanlari nomzodi, O'zXIA



Annotatsiya: Hech kimga sir emaski, respublikamizda chet tillarini o'rganish va o'rgatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz dunyoning ko'pgina mamlakatlari bilan turli sohalarida aloqalar o'rnatmoqda va bu albatta chet tillarini, jumladan arab tili tarixi va grammatikasini, qolaversa bu tilning dunyo tillaridan biri sifatida chuqur o'rganilishiga yana bir sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, ona tilimizda mavjud oltita kelishik, arab tilida uchta kelishikda mujassamlashgan: ular bosh, qaratqich va tushum kelishiklaridir. Bosh kelishik olti o'rinda, qaratqich kelishigi ikki o'rinda, tushum kelishigi esa o'n bir o'rinda ishlatiladi va mana shu kelishiklarda turlanuvchi so'zlar "mu'rab", deb nomlanadi. Shuningdek, arab tilida so'zlarni "mabniy", yani o'zgarmaydigan turi ham mavjud. Mu'rab so'zlar xoh ism bo'lsin xoh fe'l, gapda bajaradigan vazifasiga ko'ra va albatta biror omil ta'sirida turlanadi yoki tuslanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, omillar va ularning turlari arab nahvida muhim o'ringa ega bo'lgan mavzulardan bo'lib, ko'pgina mashhur tilshunos olimlar uni yoritishga harakat qilganlar. Ana shunday tilshunoslardan biri Sayyid Sharif Jurjoni bo'lib, olim o'zining "Nahvi Mir" asarida omil turlari, ularning ta'sir doirasi borasida muhim ma'lumotlarni keltirib o'tgan va ularni misollar orqali ilmiy tahlil qilgan.

Mazkur maqolamizda mashhur nahvshunos olim Sayyid Sharif Jurjoniyning e'rob omillariga oid nazariyalariga to'xtalib, ularning fikrlarini qiyosiy tahlil qilishga va shu orqali arab nahvida bu mavzu qanday yoritilganini tahlil qilishga harakat qildik.

Kalit so'z va iboralar: nahv, grammatika, morfologiya, fleksiya, e'rob, omil, mabniy, mu'rab, lafziy, ma'naviy.

Abstract: At present, our country pays great attention to learning and teaching foreign languages. Because, our country is striving to gain a worthy place in the world community, maintaining relations with many countries in the economic, political, cultural, diplomatic, scientific and educational spheres. This in turn indicates that one of the most important tasks is the deep learning of foreign languages, including Arabic and its incomparable beauty, history and grammar. It is also important to learn grammatical rules and terms from the original sources rather than translated sources for better understanding.

As it is known, there are six cases in our mother tongue and all these are included in three of cases of Arabic language. They are nominative, genitive and accusative cases. Nominative case is used in six kind of situations while, genitive and accusative cases are used in two and eleven kind of situations respectively.

It is well known that in Arabic linguistics words are divided into mabniy (i.e. immutable) and mu'rab (i.e. mutable). Whether it is a noun or a verb, it varies in a sentence according to its function. It is clear from this that factors and their types are important topics in Arabic grammar, and many well-known linguists have tried to shed light on them. One such linguist was Sayyid Sharif Jurjani, who in his Nahvi Mir provided important information about the types of factors and their scope, and analyzed them scientifically through examples.

In this small study, we have focused on the theories of the famous Nahvist scholar Sayyid Sharif Jurjani on the factors of I'rabs, and have tried to make a comparative analysis of their views and thus to analyze how the subject is covered in Arabic.

Keywords and expressions: nahv, grammar, morphology, flexion, inflection, factor, declinable, indeclinable, verbal, untangible.

Аннотация: В настоящее время в нашей стране уделяется огромное внимание обучению иностранных языков. Наша страна, которая стремится занять достойное место в мировом сообществе, устанавливает связь со многими странами мира в различных сферах, и это, безусловно, повод для углубленного изучения иностранных языков, а также арабского языка, его историю и грамматику стало одной из важнейших задач.

Известно, что все три падежа: именительный, родительный и винительный падеж соответствуют шести падежам в узбекском языке. Именительный падеж употребляется в шести, родительный в двух, а винительный в одиннадцати случаях.

Известно, что в арабском языкознании слова делятся на такие типы, как муъраб (то есть меняющиеся) и мабни (то есть неменяющиеся). Эти слова, будь то существительные или глаголы, классифицируются или видоизменяются в зависимости от их функции в предложении и, конечно, под влиянием какого-либо фактора. Видно, что факторы и их типы являются важными темами в арабском языке, и многие известные лингвисты пытались объяснить это. Одним из таких лингвистов является Саййид Шариф Джуржани, в своей работе «Нахви Мир» ученый предоставил важную информацию о видах факторов, сфере их влияния и научно проанализировал их на примерах.

В этом небольшом научном исследовании мы остановились на теориях известного лингвиста Шариф Джуржани о факторах, попытались сравнить их и проанализировать, как эта тема освещается в арабском языке.

Ключевые слова и сочетания: нахв, грамматика, морфология, флексия, изменение по флексиям, фактор, мабний (то есть неменяющиеся), муъраб (то есть меняющиеся), лафзий, маънавий.

Arab tilshunoslari soʻzlarni oxirgi harakatining oʻzgarishiga koʻra ikki guruhga ajratib oʻrganadilar. Ular mabniy (turlanmaydigan مَبْنِي) va muʻrob (turlanadigan مَعْرَب) soʻzlardir. Mashhur nahvshunos olimlardan biri Hifni Nosif muʻrob va mabniy soʻzlarga quyidagicha taʼrif bergan: soʻzlar ikki qismga boʻlinadi, bular oxiri umuman oʻzgarmaydigan soʻzlar, ular “mabniy” deb ataladi hamda oxiri oʻzgaradigan, yaʼni “muʻrab” soʻzlardir.

Turli holatlarda soʻzlarning oxiri turlicha boʻlsa, bunday soʻzlar muʻrob-oʻzgaruvchi (turlanuvchi va tuslanuvchi) soʻzlar deyiladi¹. Masalan: جَاءَنِي زَيْدٌ – Menikiga Zayd keldi. Bu yerda “Zayd” soʻzi oʻzgaruvchi soʻzdir. Uning kelishik koʻrsatkichi damma (yaʼni bosh kelishik) boʻlib, bu uning eʼrobdagi (kelishikdagi) oʻrniga ishora qiladi. “جَاءَ” feʼli esa bu soʻzni rafʼ holati-bosh kelishikda turishiga sabab boʻluvchi omildir.

رَأَيْتُ زَيْدًا – Zaydni koʻrdim hamda مَرَرْتُ بِزَيْدٍ - Zayd bilan uchrashdim, jumllariga toʻxtalib oʻtadigan boʻlsak, ulardan birinchisida “رَأَيْتُ” - koʻrdim” feʼli oʻtimli boʻlganligi uchun “Zayd”

¹ حفي ناصف، محمد دياب، مصطفى طوم، محمد صالح . الدروس النحوية. دار العقيدة. مصر، الإسكندرية-2007. الصفحة 21

nasb holati-tushumda kelgan bo'lsa, ikkinchi jumlada esa “ب” old ko'makchisi ta'sirida jarr holati-qaratqich kelishigida turibdi¹.

Shu yerda, arab tilshunosligining yana bir o'ziga xos tarafi haqida ma'lumot berib o'tishimiz lozim. Ma'lumki, o'zbek tili va boshqa ko'pgina tillar grammatikasida turlanish deganda so'zlarning kelishiklarda o'zgarishi, tuslanish deganda esa, fe'llarning zamon va mayllarda o'zgarishi tushuniladi. Arab nahvi (grammatikasi)da esa, “mo'rab” deganda ham otlarning turlanishi, ham fe'llarning tuslanishi tushuniladi. Ularni farqlash uchun esa “e'robu-l-ism” – ism so'z turkumining turlanishi, “e'robu-l-fe'l” – fe'lning zamon va mayllarda o'zgarishi, kabi terminlar mavjud.

Yuqorida tilshunos olimlar fleksiyaga ta'rif berganlarida “omillar ta'sirida so'z oxirining o'zgarishi e'rob, deb ataladi”, deya ta'rif berdilar va shu yerda “omil” so'zini ishlatdilar. Demak, arab grammatikasiga ko'ra so'zlarning turlanishi va tuslanishiga biror narsa sabab bo'lishi lozim va o'sha narsa “omil” deb nomlanadi va unga Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mashhur nahvshunos olim Abdulqohir Jurjoni o'zining “Nahvda yuzta omil” nomli asarida quyidagicha ta'rif bergan: Omil – so'zlarning oxirgi harf harakatini o'zgartira oladigan ko'makchi, yuklama va fe'llardir².

Shayx Mustafo G'alayiniy esa o'zining “جامع الدروس العربية” asarida omilni shunday ta'riflagan: jumalardagi so'zlarga e'tibor beradigan bo'lsangiz, ulardan ayrimlari o'zidan keyin kelayotgan so'zga o'z ta'sirini o'tkazadi va uni turli kelishik va mayllarda turishini talab qiladi. Masalan, fe'lni oladigan bo'lsak, u o'zi ishtirok etayotgan gapdagi egani bosh kelishikda, vositasiz to'ldiruvchini tushum kelishigida turishiga sabab bo'lyapti, yoki ismiy jumladagi egani olaylik, u xabar-ot-kesimni bosh kelishikda turishiga o'z ta'siri o'tkazmoqda. Shuningdek, shart yuklamalari fe'lni shart maylida turishini talab qilsa, predloglar o'zidan keyin kelayotgan ismlarni qaratqich kelishigida turishiga sabab bo'ladi va mana shu o'zidan keyingi so'zga ta'sir ko'rsatayotganlarning barchasi omil, deb ataladi.³

Demak, arab tilida ism va fe'llarning turlanishi va tuslanishiga sabab bo'luvchi omillar mavjud va ular “e'rob omillari”, deb nomlanadi. Ismlarning kelishiklarda turlanishiga, fe'llarni mayllarda o'zgarishiga ta'sir qiluvchi bunday omillar yana bir mashhur tilshunos olim Sayyid Sharif Jurjoni o'zining “Nahvi Mir” asarida to'liq ochib berilgan. Olim ularni ikki turini keltiradi va ular lafziy hamda ma'naviy omillardir, deb ma'lumot bergan⁴. O'z o'rnida bu omillar yana bir necha turlarga bo'linadi.

Masalan, lafziy omilning uchta turi mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Harflar, ya'ni old ko'makchilar yoki yuklamalar.
2. Fe'llar.
3. Ismlar.

Ma'naviy omil esa ikki turga bo'linib, birinchisi “al-ibtida” yoki ismning lafziy omillardan holi bo'lishi, deb nomlansa, ikkinchisi hozirgi-kelasi zamon fe'lining nasb (istak mayli) va jazm (shart mayli)da turishini talab qiluvchi yuklama va olmoshlardan holi bo'lishi, deb ataladi⁵.

Arab nahvini o'rgangan ko'pgina tilshunos olimlar o'z asarlarida ismlarni kelishikda o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar, lafziy va ma'naviy kabi ikki turga bo'linishi haqida ma'lumot berilib, so'ngra birinchi bo'lib lafziy omillarni bayon qilganlar.

¹ Sayyid Sharif Jurjoni. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. –B. 13-14.

² Abdulqohir Jurjoni. Nahvda yuzta omil. –T.: TIU nashryoti, 2014. –B. 91.

³ الشيخ مصطفى غلايينى. جامع الدروس العربية. بيروت، 1993، ص، 218

⁴ O'sha asar, –B. 11.

⁵ Sayyid Sharif Jurjoni. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. –B. 37.

Lafziy omilni yuqoridagi kabi uchta turga bo'lish Sayyid Sharif Jurjoniyl, Mustafo G'alayiniy asarlarida uchradi. Abdulqohir Jurjoniyl esa o'z asarida bu omilni "samo'iy va qiyosiy" kabi ikki turga bo'lgan. Ma'naviy omil va uning turlari bo'yicha barcha nahvshunoslarning fikrlari bir xil.

Endi lafziy omilning har bir turiga alohida to'xtalib o'tsak. Sayyid Sharif Jurjoniyni "Nahvi Mir" nomli asarida lafziy omillar "فَصْلٌ فِي عَوَامِلِ الْإِعْرَابِ" "E'rob omillari" nomli faslning "فِي الْعَوَامِلِ اللَّفْظِيَّةِ" "Lafziy omillar haqida" nomli birinchi qismida quyidagicha tahlil qilingan:

Bilginki, lafziy omillar uch bobga bo'linib, ular harflar, fe'llar va ismlardir. Biz birinchi bo'lib, ismga ta'sir qiluvchi harflarni bayon qilamiz va ular besh qismga bo'linadi¹.

Ma'lumki, arab tilida so'z turkumlaridan biri "harf", deb nomlanadi va u ism hamda fe'l so'z turkumlaridan farqli ravishda o'zi alohida hech qanday ma'no anglatmaydi. Bu so'z turkumiga o'zbek tilidagi yuklama, ko'makchi va bog'lovchilar hamda rus tilidagi predloglar kiradi.

Ismga ta'sir qiluvchi harflarning birinchisi predloglar bo'lib, asarda ular quyidagicha yoritilgan:
 الْقِسْمُ الْأَوَّلُ: الْحُرُوفُ الْجَارَّةُ: وَهِيَ سَبْعَةٌ عَشَرَ [عِشْرُونَ] حَرْفًا: الْبَاءُ، وَمِنْ، وَإِلَى، وَحَتَّى، وَفِي، وَاللَّامُ، وَرَبُّ، وَوَأُو الْقِسْمِ، وَتَاءُ الْقِسْمِ، وَعَنْ، وَعَلَى، وَالْكَافُ لِلتَّشْبِيهِ، وَمُدُّ، وَمُنْذُ، وَحَاشَا، وَخَلَا، وَعَدَا، [وَكَيْ، وَلَعَلَّ، وَمَتَى فِي لُغَةٍ؛ وَهِيَ تَجْرُ الْإِسْمِ، مِثْلُ: «الْمَالُ لِرَيْدٍ».

Ismga ta'sir qiluvchi harflarning birinchisi predloglar bo'lib, asarda ular quyidagicha yoritilgan: Ismga ta'sir qiluvchilarning birinchisi "hurufu-j-jarr"dir. Ularning soni o'n yettita (yoki yigirmata)dir. Ular quyidagilar: ب, ل, فِي, حَتَّى, إِلَى, مِنْ, بِ - qasam vovi, qasam i, عَنْ, عَلَى, tashbih (o'xshatish) ك si, عَدَا, خَلَا, حَاشَا, مُنْذُ, مُدُّ.²

Yuqoridagi ma'lumotdan, arab tilida predloglar "hurufu-j-jarr" deb nomlanishini bilib oldik. Bunday deyilishiga sabab, predloglardan keyin turgan so'zlar jarr holatida, ya'ni qaratqich kelishigida ifodalanishidir. Demak, predloglardan keyin kelgan ism doimo qaratqich kelishigida turadi. Masalan: الْمَالُ لِرَيْدٍ - Mol-mulk Zaydnikidir. Bu misolda Zayd so'zi tegishlilik ma'nosini anglatuvchi ل predlogi ta'sirida qaratqich kelishigida turibdi.

Asarda predloglarning umumiy soni o'n yettita yoki yigirmata, deb ikki xil ko'rsatilgan, bunga sabab, arab tilining ba'zi bir lahjalarida كَيْ, لَعَلَّ kabi uchta yuklamalar ham jarr, ya'ni qaratqich kelishigini talab qiluvchi old ko'makchilar, deb hisoblanishidir.

Endi ismga o'z ta'sirini o'tkazuvchi lafziy omillarning yuqoridagi birinchi turi Abdulqohir Jurjoniyni "Nahvda yuzta omil" asarida qanday yoritilganiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asarda ham avval ismlarni "jarr holati" ya'ni qaratqich kelishigida turishini talab qiluvchi old ko'makchilar bayon qilingan va ularning soni o'n yettita ekanligi ta'kidlanib, har bir predlog misollar bilan, alohida tahlil qilingan³.

وَالْقِسْمُ الثَّانِي: الْحُرُوفُ الْمُشَبَّهَةُ بِالْفِعْلِ: وَهِيَ سِتَّةٌ: إِنَّ، وَأَنَّ، وَكَأَنَّ، وَلَكِنَّ، وَلَيْتَ، وَلَعَلَّ. وَلَا بُدَّ لِهَذِهِ الْحُرُوفِ مِنْ اسْمٍ مَنْصُوبٍ وَخَبَرٍ مَرْفُوعٍ، مِثْلُ: «إِنَّ رَيْدًا قَانِمًا»؛ «رَيْدًا» اسْمٌ إِنَّ وَ«قَانِمًا» خَبَرُهَا. وَاعْلَمْ، أَنَّ لَفْظَ إِنَّ وَأَنَّ لِلتَّحْقِيقِ، وَكَأَنَّ لِلتَّشْبِيهِ، وَلَكِنَّ لِلْإِسْتِدْرَاكِ، وَلَيْتَ لِتَمْنِي، وَلَعَلَّ لِلتَّرَجِّي.

Ismga ta'sir qiluvchi harflarning ikkinchisi "al-hurufu-l-mushabbaha bi-l-fe'l", ya'ni fe'lga o'xshash harflar bo'lib, ularning soni oltitadir va ular quyidagilar: إِنَّ, أَنَّ, كَأَنَّ, لَكِنَّ, لَيْتَ, لَعَلَّ.⁴

Yuqoridagi huruflar, rus va o'zbek arabshunoslari tomonidan yuklamalar, to'g'rirog'i "egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar" deb tarjima qilingan, chunki ularning anglatayotgan ma'nolari yuklamaga to'g'ri keladi hamda ular gapning egasiga ta'sir qiladi¹.

¹O'sha asar, -B.37.

² Sayyid Sharif Jurjoniyl. Nahvi Mir. - Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. -B. 38.

³ Abdulqohir Jurjoniyl. Nahvda yuzta omil. -T.: TIU nashryoti, 2014. -B. 11-17.

⁴ Sayyid Sharif Jurjoniyl. Nahvi Mir. - Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. -B.38; Abdulqohir Jurjoniyl. Nahvda yuzta omil. -T.: TIU nashryoti, 2014. -B. 17.

Ushbu yuklamalar ismiy jumla tarkibida kelganida egani tushum kelishigida, ot-kesimni esa bosh kelishikda turishini talab qiladi. Masalan: *إِنَّ زَيْدًا قَائِمٌ* – Darhaqiqat, Zayd turuvchidir. Bu jumlada *Zayd* so‘zini nasb holatida, *قَائِمٌ* so‘zini raf holatida kelishining sababi *إِنَّ* yuklamasidir. Shuning uchun ham ega “ismu inna”, ot-kesim “xabaru inna”, deb nomlanadi.

Yuklamalarning qolganlarini sharhlab chiqadigan bo‘lsak *إِنَّ* va *أَنَّ* ta’kid yuklamalari, *كَأَنَّ* o‘xshatish uchun ishlatiladi. *لَكِنَّ* “ammo, lekin, biroq” zidlov bog‘lovchilari ma’nosida ishlatiladi. *لَكِنَّ* ushalmaydigan orzu, ya’ni armonni, *لَعَلَّ* esa orzu, xohish va ehtimollikni anglatadi va ularning hammasi gapning egasini tushumda, ot-kesimini bosh kelishigida turishiga omil bo‘ladi².

Masalan:

إِنَّ محمودًا صديقى العزيز. – Mahmud (chindan ham) aziz do‘stim.

لَعَلَّ ابراهيم ينجح فى الامتحان – Shoyad (zora) Ibrohim imtihonda muvaffaqiyat qozonsa.

كَأَنَّ زيدًا أسدٌ – Zayd sherga o‘xshaydi; Zayd sher kabidir.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, bu yuklamalar gapning egasini tushum kelishigida, kesimini esa bosh kelishikda turishini talab qilayapti va shuning uchun bo‘lsa kerak, ular Mustafa G‘alayiniyning asarida “Ismlarning bosh kelishikda ifodalanishi”, deb nomlangan bobida bayon qilingan.

وَالْقِسْمُ الثَّالِثُ مَا وَلَا [وَإِنْ وَلَاتِ] الْمُشَبَّهَاتُ بِلَيْسَ وَعَمَلُهُمَا كَعَمَلِ لَيْسَ، كَمَا تَقُولُ: «مَا زَيْدٌ قَائِمًا»، «زَيْدٌ»: [إِسْمٌ مَا، وَ«قَائِمًا» خَبَرُهَا [وَإِنْ أَحَدٌ خَيْرًا مِنْ أَحَدٍ].

Uchinchi omil *لَيْسَ* ga o‘xshash *مَا* va *لَا* (*إِنْ* va *لَا* ham) inkor yuklamalari. Ular *لَيْسَ* ning vazifasini bajaradilar. Masalan: *مَا زَيْدٌ قَائِمًا* - Zayd turmagan (turuvchi emas)³. Shu yerda eslatib o‘tishimiz kerakki, *لَيْسَ* ismiy jumla tarkibida kelib, bo‘lishli gapni inkor gapga aylantirish uchun ishlatiladigan va ot-kesimni tushum kelishigida turishini talab qiluvchi yordamchi fe‘ldir. U faqat ot-kesimga ta’sir qiladi, ismiy gapning egasi esa, bosh kelishikda turadi. *مَا* inkor yuklamasi *لَيْسَ* o‘rnida ishlatilganida, u ham ot-kesimni tushumda kelishini talab qiladi. Shuning uchun *مَا زَيْدٌ قَائِمًا* - Zayd turmagan, jumlasida *قَائِمًا* ot-kesim tushumda turibdi. Qolgan yuklamalar ham shu vazifani bajaradi⁴.

وَالْقِسْمُ الرَّابِعُ: لَا الَّتِي لِنَفْيِ الْجِنْسِ، يَكُونُ اسْمُهَا مَنْصُوبًا مُضَافًا غَالِبًا، وَخَبَرُهَا مَرْفُوعًا، مِثْلُ: «لَا غُلَامٌ رَجُلٌ ظَرِيفٌ فِي الدَّارِ». فَإِنْ كَانَتْ بَعْدَهَا نَكْرَةٌ مُفْرَدَةٌ، كَانَتْ مَبْنِيَّةً عَلَى الْفَتْحِ، مِثْلُ: «لَا رَجُلٌ فِي الدَّارِ». وَإِنْ كَانَتْ بَعْدَهَا مَعْرِفَةٌ يَجِبُ تَكْرِيرُهَا مَعَ مَعْرِفَةِ أُخْرَى، وَتَلْغِي لَا، وَتَرْفَعُ الْمَعْرِفَةُ بِالْإِبْتِدَاءِ، مِثْلُ: «لَا زَيْدٌ عِنْدِي، وَلَا عَمْرُو». وَإِنْ كَانَتْ بَعْدَهَا نَكْرَةٌ مُفْرَدَةٌ وَمُكْرَرَةٌ أُخْرَى، فَيَجُوزُ فِيهَا خَمْسَةُ أَوْجُهٍ:

- 1 - [فَتَحَ الْأَوَّلَ وَالثَّانِي]: «لَا حَوْلَ وَلَا قُوَّةَ إِلَّا بِاللَّهِ»،
- 2 - و [رَفَعَ الْأَوَّلَ وَالثَّانِي]: «لَا حَوْلَ وَلَا قُوَّةَ إِلَّا بِاللَّهِ»،
- 3 - و [فَتَحَ الْأَوَّلَ وَرَفَعَ الثَّانِي]: «لَا حَوْلَ وَلَا قُوَّةَ إِلَّا بِاللَّهِ»،
- 4 - و [عَكَّسَهُ]: «لَا حَوْلَ وَلَا قُوَّةَ إِلَّا بِاللَّهِ»،
4. - و [فَتَحَ الْأَوَّلَ وَنَصَبَ الثَّانِي]: «لَا حَوْلَ وَلَا قُوَّةَ إِلَّا بِاللَّهِ».

Ism e’robiga ta’sir qiluvchi omillarning to’rtinchisi *لَا* mutloq inkor yuklamasi. Agar bu yuklama ismiy jumla tarkibida kelsa, egani tushum kelishigida, ot-kesimni bosh kelishikda turishini talab qiladi. Aksariyat hollarda uning egasi vazifasida muzof keladi, masalan: *لَا غُلَامٌ رَجُلٌ ظَرِيفٌ فِي الدَّارِ* – Hovlida kishining g‘ulomi zukko emas⁵.

¹ Abdubabborov A. Arab tili. –T.: TIU, 2007. –B. 186.

² الشيخ مصطفى غلايينى. جامع الدروس العربية. بيروت، 1993، ص. 255.

³ Sayyid Sharif Jurjoniy. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. –B. 39; Abdulqohir Jurjoniy. Nahvda yuzta omil. –T.: TIU nashryoti, 2014. –B. 19.

⁴ Sayyid Sharif Jurjoniy. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. –B. 39.

⁵ O’sha asar, o’sha bet.

Agar لا inkor yuklamasidan keyin birlikda, noaniq holatdagi soʻz kelsa, u doimo fatha bilan harakatlanadi. Masalan: لَا رَجُلٌ فِي الدَّارِ – Hovlida hech kim yoʻq.

لا inkor yuklamasidan keyin aniq holatdagi ot kelsa va undan keyin yana لا yuklamsi aniq holatdagi ot bilan takror kelsa, لا ning taʼsir kuchi ketadi hamda aniq holatdagi har ikki ot ham bosh kelishikda turadi, masalan: لَا زَيْدٌ عِنْدِي، وَلَا عَمْرُو – Menikida na Zayd va na Amr bor.

Agar لا inkor yuklamasi takror kelsa va undan keyin birlikda, noaniq holatdagi ismlar ketma-ket kelsa, ular quyidagi beshta holatlardan birida boʻlishi mumkin¹:

1. Birinchi va ikkinchi soʻzlarning har ikkisi ham fatha bilan harakatlangan boʻlishi mumkin. Masalan: لَا حَوْلَ وَلَا قُوَّةَ إِلَّا بِاللَّهِ.

2. Birinchi va ikkinchi soʻzlarning har ikkisi ham bosh kelishikda turishi mumkin. Masalan: لَا حَوْلَ وَلَا قُوَّةَ إِلَّا بِاللَّهِ

3. Birinchi soʻz tushum kelishigida, ikkinchisi bosh kelishikda turishi mumkin, masalan: لَا حَوْلَ وَلَا قُوَّةَ إِلَّا بِاللَّهِ

4. Uchinchi holatning aksi boʻlishi mumkin, masalan: لَا حَوْلَ وَلَا قُوَّةَ إِلَّا بِاللَّهِ

5. Birinchi soʻz fatha bilan, ikkinchi soʻz tanvin fatha bilan harakatlangan boʻlishi mumkin², masalan: لَا حَوْلَ وَلَا قُوَّةَ إِلَّا بِاللَّهِ

وَالْقِسْمِ الْخَامِسُ: حُرُوفُ النَّدَاءِ، وَهِيَ خَمْسَةٌ: يَا، وَأَيَّا، وَهَيَّا، وَأَيُّ، وَالْهَمْزَةُ الْمَفْتُوحَةُ. وَهِيَ تَنْصَبُ الْمُنَادَى الْمُضَافَ، مِثْلُ: «يَا عَبْدَ اللَّهِ»، وَالشَّبِيهَ بِالْمُضَافِ، مِثْلُ: «يَا طَالِعًا جَبَلًا»، وَالنَّكْرَةَ غَيْرَ الْمُعَيَّنَةِ كَقَوْلِ الْأَعْمَى: «يَا رَجُلًا خُذْ بِيَدِي»، وَإِنْ كَانَ الْمُنَادَى مُفْرَدًا مَعْرِفَةً، يُبْنَى عَلَى عَلَامَةِ الرَّفْعِ، مِثْلُ: «يَا زَيْدًا»، وَ«يَا زَيْدَانِ»، وَ«يَا مُسْلِمُونَ»، وَ«يَا مُوسَى»، وَ«يَا قَاضِي».

إِعْلَمْ أَنَّ أَيَّ وَالْهَمْزَةَ لِلْقَرِيبِ، وَأَيَّا وَهَيَّا لِلْبَعِيدِ، وَيَا عَامَّةٌ لِلْقَرِيبِ وَالْبَعِيدِ.

يا، أيَّا، هيَّا، وأيُّ، أ. Beshinchi omil undov yuklamalaridir. Ularning soni beshta boʻlib, quyidagilardir:

Bu yuklamalardan keyingi undalma izofa holatida boʻlsa, uning muzofi tushum kelishigida turadi, masalan: يَا عَبْدَ اللَّهِ

Agar undov yuklamalaridan keyingi undalma atoqli ot boʻlsa yo soʻzlovchiga yaqin, koʻziga koʻrinadigan masofadagi muayyan shaxsga qaratilgan va bir soʻzdan iborat boʻlsa, artiklsiz, tanvinsiz, bosh kelishikda boʻladi³:

يَا زَيْدُ، يَا زَيْدَانِ، يَا مُسْلِمُونَ، يَا مُوسَى، يَا قَاضِي.

Shuni unutmaslik kerakki, أَيُّ va أَيَّا yaqindagi undalmaga, أَيُّ va أَيَّا uzoqdagi undalmaga murojaat qilish uchun ishlatiladi. يا esa uzoqdagiga ham, yaqindagiga ham ishlatilaveradi⁴.

Ismning turlanishiga taʼsir qiluvchi lafziy omillarning ikkinchi turi feʼllar boʻlib, ular “Nahvi Mir” asarida alohida bir bob sifatida yoritilgan.

Maʼlumki, feʼllarning barchasi soʻzlarning oʻzgarishiga omil (sabab) boʻladi va ularning omil boʻlmaydigani yoʻq. Omil feʼllar ikki qismga boʻlinadi va ular quyidagilar: birinchi qism aniq daraja feʼllarining taʼsir doirasi haqidadir.

Arab tilida ham feʼl oʻtimli va oʻtimsiz deb nomlanuvchi ikki turga boʻlinadi va ular xoh oʻtimli, xoh oʻtimsiz boʻlsin egani bosh kelishikda turishini talab qiladi, yaʼni eganing bosh kelishikda ifodalanishiga feʼl omil boʻladi⁵. Masalan: قَامَ زَيْدٌ - Zayd turdi.

¹ Sayyid Sharif Jurjoniyy. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. –B. 39.

² Qosimova S. Hamiduddin Daririyning “Muqaddima” asari: matn va tadqiq. –T.: TDSHI, 2014. –B. 114.

³ Sayyid Sharif Jurjoniyy. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. –B. 41.

⁴ Abdulqohir Jurjoniyy. Nahvda yuzta omil. –T.: TIU nashryoti, 2014. –B. 20.

⁵ Sayyid Sharif Jurjoniyy. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. –B. 46.

Shuningdek, aniq daraja fe'li jumladagi oltita bo'lakni tushum kelishigida turishiga sabab bo'ladi va ular quyidagilar¹:

1. Ma'ul mutlaq. Masalan: **ضَرَبَ زَيْدٌ ضَرْبًا وَ قَامَ زَيْدٌ قِيَامًا**.
2. Ma'ul fihi (O'rin-payt holi). Masalan: **صُمْتُ يَوْمَ الْجُمُعَةِ، وَجَلَسْتُ فَوْقَكَ**.
3. Ma'ul ma'ahu (Birgalikni ifodalovchi to'ldiruvchi). Masalan: **جَاءَ الْبَرْدُ وَالْجَبَّاتِ أَيْ مَعَ الْجَبَّاتِ**.
4. Ma'ul lahu (Sabab va maqsad holi). Masalan: **قُمْتُ إِكْرَامًا لَزَيْدٍ، وَضَرْبُهُ تَأْدِيبًا**.
5. Hol (Ravish holi). Masalan: **جَاءَ زَيْدٌ رَاكِبًا**.
6. Tamyiz (Cheklov). Cheklov gapning kesimi ifodalagan ma'noning ob'ektini aniqlab, chegaralab keladi. Masalan: **طَابَ زَيْدٌ نَفْسًا**.

O'timli fe'l arab tilida "fe'lun muta'addiyun" deb ataladi va u o'timsiz fe'l (fe'lun lazimun)dan farqli ravishda vositasiz to'ldiruvchini tushum kelishigida turishini talab qiladi. Masalan: **ضَرَبَ زَيْدٌ عَمْرًا** - Zayd Amrni urdi. Ma'lum bo'lyaptiki, fe'llar gapning ayrim ikkinchi darajali bo'laklarini nasb holatida turishiga omil bo'ladi.

O'timli fe'lning vositasiz to'ldiruvchini nasbda ifodalanishiga omil bo'lishi haqida Abdulqohir Jurjoniyl shunday ma'lumot beradi: o'timli fe'l vositasiz to'ldiruvchiga o'z ta'sirini o'tkazadi va bunday fe'llar uch turga bo'linadi.

1. Bir to'ldiruvchiga ega o'timli fe'l. Masalan: **ضَرَبَ زَيْدٌ عَمْرًا** - Zayd Amrni urdi.
2. Ikki to'ldiruvchiga ega bo'lgan o'timli fe'l, to'ldiruvchilarning ikkinchisi birinchi to'ldiruvchiga bog'liq bo'ladi yoki aksincha, ikkinchi to'ldiruvchi birinchisiga bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Ikkinchi to'ldiruvchi mazmunan birinchisiga bog'liq. Masalan: **عَلِمْتُ زَيْدًا فَاضِلًا** - Zaydni fozil (inson) deb bildim². Ikkinchi to'ldiruvchi mazmunan birinchisiga bog'liq emas. Masalan: **أَعْطَيْتُ زَيْدًا دِرْهَمًا** - Zaydga dirhamni berdim. Ikki to'ldiruvchini talab qiluvchi o'timli fe'lning bu turini Sayyid Sharif Jurjoniyl, "Ismiy jumlaning muftada va xabarini vositasiz to'ldiruvchiga aylantiruvchi fe'l hamda muftada va xabar bo'lmagan ikki ismni vositasiz to'ldiruvchiga aylantiruvchi fe'l", deb ta'riflagan³.
3. Uchta to'ldiruvchiga ega o'timli fe'l. Masalan: **أَعْلَمَ اللَّهُ زَيْدًا عَمْرًا فَاضِلًا** - Alloh Zaydga Amrni fozil inson ekanligini bildirdi.

Yuqoridagi misolda keltirilgan **زَيْدًا**, **عَمْرًا**, **فاضِلًا** so'zlari tushum kelishigida ifodalangan va ularning har biri ma'ul bihi (vositasiz to'ldiruvchi)dir⁴.

Ismlarning kelishigiga ta'sir qiluvchi fe'llarga majhul darajadagi fe'llar ham kiradi. Arab tili grammatikasida majhul darajadagi fe'l ega (fo'il)ning o'miga o'z vositasiz to'ldiruvchisini bosh kelishikda va qolgan bo'laklarni tushumda turishini talab qiladi. Masalan: **ضَرَبَ زَيْدٌ يَوْمَ الْجُمُعَةِ، أَمَامَ الْأَمِيرِ، ضَرْبًا شَدِيدًا، فِي دَارِهِ، تَأْدِيبًا، وَالْخَشْبَةَ**

Zayd juma kuni o'z hovlisida, amir oldida, odob berish maqsadida yog'och bilan qattiq savalandi⁵. Bu jumlada "Zayd" so'zi majhul daraja fe'l ta'sirida bosh kelishikda ifodalandi va u shu gapning grammatik egasi, nahvga ko'ra esa "no'ibu-l-fo'il" vazifasini bajarayapti.

Majhul darajadagi fe'l o'timli bo'lsa, uning vositasiz to'ldiruvchisi gapning grammatik egasi vazifasini bajaradi. Agar majhul darajadagi fe'l o'timsiz bo'lsa (albatta uning vositasiz to'ldiruvchisi ham bo'lmaydi), gapning egasi bo'lmaydi. Bunday gaplar o'zbek tilida "shaxsi topilmaydigan yoki shaxsi noma'lum gap" deb ataladi.

¹ O'sha asar, o'sha bet.

² Abdulqohir Jurjoniyl. Nahvda yuzta omil. –T.: TIU nashryoti, 2014. –B. 76.

³ Sayyid Sharif Jurjoniyl. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. –B. 51.

⁴ Abdulqohir Jurjoniyl. Nahvda yuzta omil. –T.: TIU nashryoti, 2014. –B. 76.

⁵ Sayyid Sharif Jurjoniyl. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. –B. 50.



Ma'lumki, arab tilida "noqis fe'llar" deb ataluvchi fe'llar mavjud va ular ham ismni kelishigiga ta'sir qiladi¹. Noqis fe'llar tarkibiga quyidagilar kiradi:

كَانَ، وَصَارَ، وَظَلَّ، وَبَاتَ، وَأَصْبَحَ، وَأَضْحَى، وَأَمْسَى، وَغَدَاً، وَأَضَى، وَغَدَاً، وَرَاحَ، وَمَا زَالَ، وَمَا انْقَضَى، وَمَا بَرَحَ، وَمَا قَتِيَ، وَمَا دَامَ، وَلَيْسَ، (وَاسْتَحَالَ، وَقَعَدَ، وَحَارَ).

Bu fe'llarning noqis deb atalishi, ularning semantik xususiyatidan kelib chiqqan. Ularning "noqisligi" yordamchi fe'l vazifasida kelganida namoyon bo'ladi. Bu fe'llar yordamchi fe'l vazifasida kelganida, ismni ham, fe'lni ham boshqaradilar.

Agar bu fe'llar ismiy gap tarkibida faqat ega (mubtada) bilangina kelsa, gap tugallanmagan hisoblanadi. Jumla tugallangan bo'lishi uchun albatta, gapning ot-kesimi (xabar) ham bo'lishi shart. Aks holda, jumla tugallanmagan hisoblanadi. Shuning uchun ham bu fe'llar "noqis fe'llar" deb nomlangan².

Ushbu fe'llar ismiy jumla tarkibida ishlatilganida, ega (mubtada)ni bosh kelishikda va ot-kesim (xabar)ni tushum kelishigida turishini talab qiladi³. Masalan: *كَانَ زَيْدٌ قَائِمًا* - Zayd tik turgan edi.

Bu kabi jumlalarda bosh kelishikdagi ega *كَانَ* ning ismi, tushum kelishigidagi ot-kesim esa *كَانَ* ning xabari deb nomlanadi.

Arab tilida taajjubni ifodalovchi fe'llar bo'lib, ular "taajjub fe'llari" deb nomlanadi. Taajjub fe'llari ikki shaklda ishlatiladi.

Birinchisi *مَا أَفْعَلُ* shaklida. Masalan: *مَا أَحْسَنَ زَيْدًا* - Zayd qanday yaxshi! Ko'rib turganimizdek, taajjub fe'lidani keyingi taajjublanilgan shaxs yoki narsa tushum kelishigida bo'ladi. Yuqoridagi jumlaning tahlil qiladigan bo'lsak, uning so'zma-so'z tarjimasini "qaysi narsa Zaydni yaxshi qildi". «*مَا*» gapda "narsa" ma'nosida kelib, bosh kelishikdagi ega o'midadir. «*أَحْسَنَ*» esa, bosh kelishikdagi ot-kesimning o'mida ishlatilgan hamda uning o'zining yashiringan egasi bo'lib, u «*هُوَ*»dir. «*زَيْدًا*» esa vositasiz to'ldiruvchi⁴.

Ikkinchisi esa, *أَفْعَلُ ب* shaklida. Masalan: *أَحْسِنُ بَزِيدٍ* - Zayd qanday yaxshi! «*أَحْسِنُ*» buyruq maylida ifodalangan va ot-kesim o'mida. Uning so'zma-so'z tarjimasini: Zayd yaxshi ish qildi yoki yaxshi hulq sohibiga aylandi. Qolipdagi «*ب*» orttirilgan predlog bo'lib, hayratlanish ob'ekti bu predlog bilan qaratqich kelishigida keladi⁵.

Taajjubni ifodalash uchun faqat uch o'zakli fe'llargina yuqoridagi ikki shaklga qo'yiladi. Boshqalari ishlatilmaydi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ismlarning turlanishida fe'llarning ta'siri kattadir. O'timli fe'l tushum kelishigidagi vositasiz to'ldiruvchini talab qilsa, o'timlimi, o'timsizmi, aniq darajadagi fe'l esa, gapda mutlaq masdar, tamyiz, o'rin-payt holi hamda sabab-maqсад hollari kabi gapning ikkinchi bo'laklarining kelishiga sabab bo'ladi va bu bo'laklar ham nasb holatida ifodalanadi.

Ma'lumki, arab tilida shunday ismlar borki, ular boshqa ismni kelishikda turlanishiga sabab bo'ladi. Ismning turlanishiga ta'sir qiluvchi lafziy omillarning uchinchi bobi aynin shunday ismlarga bag'ishlangan.

Ismning kelishigiga ta'sir qiluvchi ismlardan birinchisi o'tgan zamon fe'li ma'nosidagi so'zlardir. Arab tilida shunday so'zlar borki, ular aslida ism so'z turkumiga kiradi, ammo o'tgan zamon fe'lining ma'nosini anglatadi. Bu so'zlarga *هَيْهَاتَ* "uzoq" "uzoq bo'ldi" ma'nosida, *شَتَّانَ* "farq" "farq qildi"

¹ O'sha asar. -B. 53; 230. ص. 1993. جامع الدروس العربية. بيروت،

² Sayyid Sharif Jurjoni. Nahvi Mir. - Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. -B. 53.

³ الشَّيْخُ مُصْطَفَى الْغَالِيْنِي. جامع الدروس العربية. بيروت، 1993. ص. 231.

⁴ Sayyid Sharif Jurjoni. Nahvi Mir. - Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. -B. 56.

⁵ حَفْنِي نَاصِف، مُحَمَّد دِيَاب، مُصْطَفَى طُمُوم، مُحَمَّد صَالِح. الدروس النحوية. دار العقيدة. مصر، الإسكندرية-2007. الصفحة 85



ma'nosida, سُرْعَانْ "tez, tezlik bilan" "tez bo'ldi, shoshdi" ma'nosidagi so'zlar kirib, jumla fo'ili, ya'ni egani bosh kelishikda turishini talab qiladi¹. Masalan: هَيَّاهَات يَوْمَ الْعِيدِ - Bayram kuni uzoqdir.

Izofa birikmasining muzofi ham turlanishga sabab bo'ladi. U o'zidan keyingi muzof ilayhini qaratqich kelishigida turishini talab qiladi. Masalan: جَاءَنِي غُلَامٌ زَيْدٌ - Menikiga Zaydning xizmatkori keldi. Misoldagi izofada aslida "لِ" old ko'makchisi bor. U birikma tarkibidan tushirib qoldirilgan, lekin shunday bo'lsa-da, ma'nosi saqlab qolingan. Yuqorida keltirilgan misoldagi izofa aslida "غُلَامٌ زَيْدٌ" bo'lgan, so'ngra old ko'makchi tushirib qoldirilgan.

Aniq sonni bildirmaydigan, umumiy miqdorni ifodalashda qo'llaniladigan كَمْ hamda كَذَا olmoshlari ham turlanishga sabab bo'luvchi ismlar tarkibiga kiradi. Bulardan كَمْ olmoshi ikki xil ma'noni ifodalaydi. Birinchisi so'roq, ikkinchisi darak ma'nosini beradi. U so'roqni ifodalaganda undan keyin kelgan sanalmish cheklov bo'lib, tushum kelishigida turadi. Masalan: كَمْ رَجُلًا عِنْدَكَ - Huzuringda necha kishi bor?

كَمْ olmoshi so'roqni emas, "qanchalar", "naqadar ko'p" kabi undov ma'nolarida ham ishlatiladi va bunda u o'zidan keyingi so'zni izofaning ikkinchi bo'lagi sifatida qaratqich kelishigida turishini talab qiladi. Masalan: كَمْ مَالٍ أَنْفَقْتَ - Qancha molni sarflading!

Biz yuqorida ismlarning kelishiklarda turlanishiga sabab bo'luvchi lafziy omillar haqida ma'lumot berdik, endi ma'naviy omillarga ham to'xtalib o'tsak.

Ma'lumki, arab tili grammatikasida ma'naviy omillar ikki qismdan iborat bo'lib ulardan bittasi ismga ta'sir qilsa, ikkinchisi fe'llarning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ismga ta'sir qiluvchi ma'naviy omil "ibtido" deb nomlanadi va u quyidagicha ifodalanadi:

Ibtido (jumlaning boshida kelish). Bunda ism yuqorida keltirilgan lafziy omillardan xoli bo'ladi. Ibtido muftada, ya'ni ega va xabar - ot-kesimni bosh kelishikda turishini talab qiladi. Masalan: زَيْدٌ قَائِمٌ - Zayd (tik) turibdi (turuvchidir).

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, arab tilida harf, fe'l va ism so'z turkumlarining barchasi gapda ismlarni kelishiklarda turlanishiga sabab bo'luvchi omillar hisoblanadi. Harflarning aksariyat qismi, aniqrog'i, predloglar gapda qaratqich kelishigining ifodalanishiga sabab bo'lsa, ba'zi yuklamalar va fe'llar tushum kelishigining ishlatilishiga omil bo'ladi. Ismlarning o'zgarishiga boshqa bir ism ham omil bo'ladi. Ular fe'l ma'nosidagi so'zlar, olmoshlar va sifat turlari hamda so'zning izofa birikmasida kelishidir. Ularning hammasi lafziy omillar hisoblanadi. Ismlarning turlanishiga yana ma'naviy omillar ham sabab bo'ladi va u "al-ibtida" deb ataladi. Ibtida, degani ismiy jumla egasining gap boshida kelishi bo'lib, u egani bosh kelishikda ifodalanishiga sababdir. Shuningdek, mana shu ega o'z o'rnida ot-kesimni bosh kelishikda turishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Abdujabborov. Arab tili. –T.: Toshkent islom universiteti, 2015.
2. Abdulqohir Jurjoni. Nahvda yuzta omil. –T.: TIU nashryoti, 2014
3. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. - М.: Наука, 2001. 592 с.
4. Sayyid Sharif Jurjoni. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. 48 b.
5. Qosimova S. Hamiduddin Daririyning "Muqaddima" asari: matn va tadqiq. –T.: TDSHI, 2014. 151 b.

1. الشيخ مصطفى الغلاييني، جامع الدروس العربية، بيروت، 1993. ص. 738
2. فؤاد نعمة. ملخص قواعد اللغة العربية. القاهرة. نهضة مصر. 1973. ص. 214

¹ Sayyid Sharif Jurjoni. Nahvi Mir. – Karachi: Qadimiy kutubxona, 1997. –B. 57.



3. محمود الزمخشري. الانموذج في النحو. مصر. 1323 هـ/1987م. ص. 408

4. حفي ناصف. محمد دياب. مصطفى طوم. محمد صالح. الدروس النحوية. دار العقيد. مصر، 2007



СТРУКТУРНО- СЕМАНТИЧЕСКИЙ - АНАЛИЗ ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ СОВРЕМЕННОГО ПЕРСИДСКОГО ЯЗЫКА

Азимджанова Динара

Доцент, к.ф.н., ТГУВ

Азизходжаева Камола

Магистрант, ТГУВ



Аннотация. В статье анализируются дипломатическая лексика персидского языка с точки зрения семантики и структуры. Исходя из того факта, что дипломатическая лексика обслуживает различные сферы дипломатической деятельности, представляющую собой сложную систему, лексика, относящаяся к различным аспектам дипломатической деятельности отличается семантическим разнообразием. Лексика анализируется с точки зрения структуры для выявления ее структурных особенностей, позволяющих сделать выводы о путях образования данного пласта лексики.

Ключевые слова: Дипломатическая лексика, дипломатия, дипломатическая деятельность, термины-слова и термины – словосочетания, изафетные, предложные словосочетания

Annotation. The article analyzes the diplomatic lexicon of the Persian language from the point of view of semantics and structure. Based on the fact that diplomatic lexicon serves different spheres of diplomatic activity, which is a complex system, the lexicon related to different aspects of diplomatic activity is characterized by semantic diversity. The lexicon is analyzed from the point of view of structure in order to identify its structural features that allow us to draw conclusions about the ways of formation of this stratum of the lexicon.

Keywords: Diplomatic vocabulary, diplomacy, diplomatic activity, terms-words and terms-word combinations, isafetal, prepositional phrases.

Annotatsiya. Maqolada fors tilining diplomatik lug'at tarkibi semantika va struktura nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Diplomatiy lug'at murakkab tizim bo'lgan diplomatik faoliyatning turli sohalariga xizmat qilishidan kelib chiqib, diplomatik faoliyatning turli jabhalariga oid lug'at ma'no xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Lug'at tuzilish nuqtai nazaridan tahlil qilinib, uning strukturaviy xususiyatlarini aniqlash, bu lug'at qatlamining shakllanish yo'llari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Diplomatiy lug'at, diplomatiya, diplomatik faoliyat, atamalar-so'zlar va atamalar - so'z birikmalari, izofali va old qo'shimchali so'z birikmalari.

Введение. Дипломатическая лексика персидского языка является частью общественно-политической лексики, которая в последние годы активно пополняется новыми словами и понятиями. Это является одной из причин интереса к изучению дипломатической лексики.

Исследование дипломатической лексики представляет определенный интерес, потому что процессы глобализации в мире, набирающие обороты в течение последних нескольких